

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


05 may, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish
departamenti

SQB, Ipoteka va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-5 may, Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)

UzSQB, Ipoteka banki va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda




- 2024-yilning yozida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.
- Mart oyida SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'sishni boshladi. O'tgan hafta boshida daromadlilik 8,328% ga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va 8,406% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 7,837% – 9,126% gacha o'zgarib turdi. Ushbu tendensiyalarga asoslangan holda, yil oxiriga kelib SQB evrobondlarining daromadliligi 7,8% – 9,5% atrofida bo'lishi mumkin.
- O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 7,942% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 7,981% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 7,561% – 8,878% gacha o'zgarib turdi. Ayni vaqtdagi tendensiyalar asosida, bizning prognozimizga ko'ra, yil oxiriga kelib daromadlilik 7,3% – 8,9% gacha yetishi mumkin.
- O'tgan hafta Ipotekabank evrobondlarining daromadliligi o'sishni boshladi va 6,690% ga yetdi. Biroq, haftaning oxiriga kelib daromadlilik ko'tarilib, 6,784% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 6,542% – 8,533% gacha o'zgarib turdi. Bizning prognozlarimizga ko'ra, yil oxiriga kelib daromadlilik 6,6% – 7,7% oralig'ida bo'lishi kutilmoqda.

SOFR va Euribor

AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi


SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 4,42% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 4,36% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz pasayib, 4,39% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Hozirgi vaqtda tahlilchilar yil oxiriga borib, SOFR stavkasi 3-3,5% gacha pasayishini prognoz qilmoqda, bu esa iqtisodiy faollikning sekinlashishi mumkinligi bilan bog'liq ravishda pul-kredit siyosati yumshatilishi bo'yicha kutilmalar bilan izohlanadi.

Динамика Euribor




Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) joriy haftaning boshiga kelib 2,142% (3 oylik) va 2,143% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.

Ko'pchilik ekspertlar bank sektorida ushbu stavkaning yanada pasayishini, xususan 2025-yil oxiriga kelib 2% ga tushishi mumkinligini prognoz qilmoqdalar.




O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo hajmi **508,0** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **662,2** million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **12 948** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib, **12 915** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya **0,41%** ni tashkil etdi. Yuqorida aytib o'tilgan omillarni inobatga olgan holda, yil oxiriga kelib kurs **13 420-13 550** so'm atrofida bo'lishi kutilmoqda.


Dollarning so'mga nisbatan almashuv kursi



05.05.2025 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **Aloqabank**da qayd etilgan – **12 930** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 940 – 12 975** so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **BRB**da qayd etilgan – **12 900** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **12 885-12 840** so'm atrofida bo'lgan.




- Dollar kursi rublga nisbatan barqaror bo'lib qolmoqda

Dollar kursi rublga nisbatan taxminan 82,8 rubl darajasida saqlanmoqda.

Rubl barqarorligini neft narxlarining o'sishi va mamlakat ichidagi valyutaga bo'lgan talabning pastligi ta'minlamoqda. Shuningdek, Rossiya Bankining siyosati — valyuta operatsiyalariga cheklovlar va likvidlikni nazorat qilish ham qo'llab-quvvatlamogda.


Biroq, mutaxassislar neft narxleri pasayishi yoki import oshishi, rubl zaiflashishiga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantirmogda. Bu holatda, dollar kursi yana 85 rublga oshib ketishi mumkin.



- Rubl yuanga nisbatan pasaymogda, bu neftning faol ravishda arzonlashuvi bilan bog'liq

Xitoy yuani Moskva birjasida oshmogda, rubl esa neft narxlarining sezilarli darajada pasayishi fonida tushmogda. Rossiya valyutasi bosim ostida qolmogda.

Geosiyosiy vaziyatning yomonlashuvi va neft narxlarining salbiy dinamikasi savdo sotuvleri uchun turtki bo'ldi, bu rublning keskin zaiflashishiga olib keldi. Shu tariqa, savdo yakunlariga ko'ra, "yuan-rubl" juftligi 2% dan ortiq o'sdi va hafta oxirida 11,2-10,8 rubl/yuanni tashkil etdi.



- Evro biroz zaiflashdi


Evro kursi AQSH dollariga nisbatan ikkinchi hafta davomida kichik pasayish bosimi ostida qolmogda.

Investorlar, ayniqsa, AQSH tarif siyosatining ichki iqtisodiyotga ta'siri haqidagi xavotirlar sababli, dollarni ehtiyotkorlik bilan qabul qilmoqdalar.


Shu bilan birga, yaqinda e'lon qilingan AQSH iqtisodiy ma'lumotlari birinchi chorakda iqtisodiy faollik pasayganini ko'rsatdi, bu esa qisman savdo tarangligi bilan bog'liq.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlar dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)



Brent nefti narxlar dinamikasi
(bir barrel uchun, AQSh dollarida)



TTF gaz narxlar dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



➤ Oltin narxlar kamayishni davom etmoqda

Jahon bozorida oltin narxlar pasayishi kuzatildi.

Birja bo'yicha oltinning bir troyniya untsiyasining narxi pasayib, 3252 dollarni tashkil etdi.

Oltin narxlar Osiyo savdolarida pasayishda davom etdi, bunda AQSH ma'muriyati savdo tarangligi pasayishi fonida navtomobil tariflari ta'sirini yumshatdi, shu bilan birga, investorlar Federal Rezerv tizimi foiz stavkalari prognozlarini baholashda istiqboldagi AQSH iqtisodiy ma'lumotlarini ehtiyotkorlik bilan kutishmoqda.

➤ Neft bozorida rekord darajadagi pasayish kuzatildi

Donald Trampning yangi global tarif siyosati jahon bozorida neft narxlarining so'nggi uch yarim yil ichida keskin pasayishiga olib keldi. Bu o'zgarishlar neft bozorida Tramp tomonidan e'lon qilingan yangi tarif siyosati bilan bog'liq.

Ushbu siyosatga ko'ra, Amerikaga import qilinadigan barcha tovarlar qo'shimcha bojxona to'lovlariga tortiladi. Bu holat faqat Xitoy bilan emas, balki boshqa davlatlar bilan ham global savdo urushiga olib keldi. Pekin ma'muriyati ham o'z navbatida AQSHning ushbu qarorlariga qarshi choralar ko'rdi. Xususan, Xitoy va AQSH o'rtasidagi munosabatlar yomonlashuvi, bozor ishtirokchilari ishonchi va narxlarning yanada pasayishiga olib kelishi ehtimoli mavjud.

➤ Evropada tabiiy gaz narxlar pasayishda davom etmoqda


Evropadagi tabiiy gaz narxlarida pasayish trendi kuzatildi, shu bilan birga, etalon Gollandiya TTF shartnomasi megavatt-soatiga 38 dollardan pastga tushdi.

Narxlar pasayishi Shimoliy-G'arbiy Yevropaga suyuqlashtirilgan tabiiy gaz (SPG) importi qayta oshganligi, DNB Markets tahlilchilari fikriga ko'ra, zahiralarini to'ldirish va Yevropa bozorini muvozanatlashtirish uchun yetarli bo'lgan darajaga yetganligi fonida yuz berdi. Osiyoda talab zaiflashganligi ham narxlarning pasayishiga turtki bo'ldi. Jahon gaz bozorining yirik o'yinchisi bo'lgan Xitoy aprel oyida rekord darajada gazni qayta eksport qildi.

Yangiliklar

Fransiya banki BNP Paribas raqamli platforma yaratdi, bu platforma mijozlarga ekologik barqaror loyihalar va fondlarga sarmoya kiritish imkonini beradi, shuningdek, global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi.

Kanada RBC banki tashqi dasturchilar uchun o'zining API-lariga kirishni ochdi, bu esa ochiq bank ishi ekotizimi rivojiga hamda yangi moliyaviy ilovalar va xizmatlar yaratishga turtki beradi.



Yaponiyaning eng yirik banki Mitsubishi UFJ Financial Group o'zining raqamli valyutasi uchun pilot testlarni boshladi, bu esa to'lovlarni soddalashtirish va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Bank of America sun'iy intellektga asoslangan virtual yordamchisi Erica funksionalini kengaytirdi, bu esa mijozlarga mablag'larni boshqarish va ixtisoslashgan maslahatlar taqdim etish imkonini beradi.